

“YASHIL IQTISODIYOT” SHAROITIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xasanov Baxodir Akramovich

TDIU, “Audit” kafedrası professori, i.f.d.

Maxmudov Azamat Normuradovich

TDIU, “Audit” kafedrası professori, i.f.d.

Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

TDIU, “Audit” kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. *Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatida ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik xarajatlarini aks ettirish zarurati ortib bormoqda. Mazkur maqolada pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirish bo‘yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqildi. Tadqiqotda MSA normalari asosida yashil risklarni aniqlash, ekologik subvensiyalarni aks ettirish va pul oqimlari hisobotini ekologik ko‘rsatkichlar bilan boyitish taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, pul oqimlari, ekologik investitsiyalar, audit, MSA, subvensiya, risk tahlili*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni belgilab oldi. 2022-yil dekabr oyida “Yashil o‘tish strategik asoslari” tasdiqlandi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha Harakatlar rejasi” ishlab chiqildi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti tarixan yuqori chiqindi darajasiga ega bo‘lib, yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan energiya sarfi MDH davlatlari orasida eng yuqorilardan biridir [1]. Shu boisdan ham xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida ekologik xarajatlar va investitsiyalarni to‘g‘ri aks ettirish zaruratini oshiradi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish global tendensiyaga aylangan bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari, barqarorlik xarajatlari va davlat subvensiyalari kabi elementlar korxonalarining pul oqimlarida yangi tarkibiy qismlar sifatida paydo bo‘lmoqda. Biroq, amaldagi buxgalteriya hisobi va audit me‘yorlarida ushbu ekologik komponentlar yetarli darajada aks ettirilmayapti [2].

Pul oqimlari tahlili va auditining an‘anaviy metodikasi korxonalarining ekologik faoliyatini to‘liq qamrab ololmaydi. Bu esa moliyaviy shaffoflik, investitsiya samaradorligi va ekologik risklarni baholashda muammolarni yuzaga keltiradi. Mavjud BHMS (Buxgalteriya hisobi milliy standartlari) va XAS (Xalqaro audit standartlari) asosan umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik xarajatlarini aks ettirish uchun kengaytirilgan metodologik yondashuvni talab qiladi [3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi — yashil iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan metodologiyani ishlab chiqishdir. Tadqiqotda ekologik investitsiyalarni aks ettirish, yashil risklarni aniqlash va pul oqimlari hisobotini ekologik ko‘rsatkichlar bilan boyitish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi [4].

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi so‘nggi o‘n yillikda global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishiga aylandi. BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi

(UNEP) tomonidan ta'kidlanishicha, yashil iqtisodiyot — bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirish bilan birga, ekologik xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan iqtisodiy modeldir [5].

Xalqaro miqyosda ekologik xarajatlar va yashil investitsiyalarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Schaltegger va Burritt (2018) o'z tadqiqotlarida korxonalarining barqarorlik faoliyatini moliyaviy ko'rsatkichlar bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi [6]. Boshqa tomondan, Gray va Milne (2002) ekologik hisobot berishdagi metodologik muammolarni tahlil qilib, mavjud buxgalteriya standartlari ekologik oqibatlarni yetarli darajada aks ettirmasligini ko'rsatgan [7].

Audit sohasida esa Xalqaro audit standartlari (XAS) doirasida ekologik risklarni aniqlash va baholashga oid yondashuvlar hali ham rivojlanish bosqichida. Xususan, XAS 315 (Korxonalar faoliyatini tushunish va muhim xatolik xatarlarini aniqlash) va XAS 330 (Aniqlangan xatarlarga javob choralarini belgilash) standartlari asosida yashil risklarni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lsa-da, ekologik investitsiyalar va uglerod kompensatsiyalarining auditda aks ettirilishi bo'yicha aniq metodikalar yetarli emas [8]. Bu holat O'zbekiston sharoitida ham dolzarb bo'lib, BHMSda ekologik xarajatlar va barqarorlik ko'rsatkichlarini aks ettirishga oid aniq ko'rsatmalar mavjud emasligi kuzatilmoqda [9].

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qator strategik hujjatlar qabul qilindi. 2022-yilda tasdiqlangan "Yashil o'sish strategik asoslari" va 2030-yilgacha mo'ljallangan Harakatlar rejasi doirasida ekologik investitsiyalarni rag'batlantirish, chiqindilarni kamaytirish va uglerod neytralligiga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan [10].

Shu bois, mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy standartlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirish uchun yangi, integratsiyalashgan metodologik yondashuv zarur. Bu yondashuv ekologik ko'rsatkichlarni moliyaviy tahlil va audit jarayonlariga kiritish, shuningdek, XAS doirasida yashil risklarni baholash indikatorlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari tahlili va auditini yashil iqtisodiyot sharoitida takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuv ishlab chiqildi. Uning nazariy asosini barqaror rivojlanish tamoyillari, ekologik investitsiyalarni aks ettirishga oid xalqaro amaliyot hamda Xalqaro audit standartlari tashkil etadi. Tahlil jarayonida korxonalarining pul oqimlari hisobotida ekologik xarajatlar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik investitsiyalarining aks ettirilish darajasi o'rganilib, transport, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik sohalarida amaliy tahlillar o'tkazildi. O'zbekiston BHMS me'yorlari va XAS standartlari o'rtasida ekologik komponentlarni aks ettirish bo'yicha farqlar tahlil qilinib, XAS 315 va XAS 330 standartlari asosida yashil risklarni baholash imkoniyatlari ko'rib chiqildi [8]. Pul oqimlari hisobotiga ekologik ko'rsatkichlarni kiritish bo'yicha model ishlab chiqilib, unda ekologik investitsiyalar, davlat subvensiyalari va uglerod chiqindilari xarajatlari alohida satrlar sifatida ajratildi, audit jarayonida esa ekologik risklar uchun indikatorlar tizimi taklif etildi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyati ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik xarajatlari bilan boyib bormoqda. An'anaviy pul oqimlari audit metodikasi bu elementlarni to'liq qamrab ololmaydi, natijada moliyaviy shaffoflik va yashil risklarni baholashda

bo'shliqlar yuzaga keladi. Shu bois, audit jarayonida ekologik ko'rsatkichlarni alohida satr sifatida aks ettirish, davlat subvensiyalarini pul oqimlari kirimida ko'rsatish va chiqindilarni kamaytirish xarajatlarini operatsion oqimlarda ajratish zarur.

Takomillashtirish masalalari, avvalo, BHMS va XAS standartlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. XAS 315 va 330 auditorlarga muhim xatolik xatarlarini aniqlash va ularga javob choralarini belgilash imkonini bersa-da, BHMSda ekologik komponentlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud emas. Shu sababli, milliy standartlarda ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik xarajatlari uchun alohida hisobvaraqlar joriy etilishi lozim.

O'zbekiston BHMS me'yorlari va XAS (ISA) standartlari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, BHMSda ekologik komponentlar alohida ko'rsatkich sifatida belgilab berilmagan, ya'ni moliyaviy hisobotlarda ekologik xarajatlar va investitsiyalarni aks ettirish bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar mavjud emas. Natijada, korxonalar ekologik faoliyatga yo'naltirilgan mablag'larni umumiy xarajatlar tarkibida ko'rsatib, ularni alohida tahlil qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin. XAS (ISA) standartlari esa, ayniqsa 315 va 330-bandlarda, muhim xatolik xatarlarini aniqlash va ularga javob choralarini belgilash orqali auditorlarga yashil risklarni baholash imkonini beradi. Bu yondashuv ekologik investitsiyalar va uglerod kompensatsiyalarini audit jarayonida alohida e'tiborga olishni taqozo etadi.

BHMS va XAS standartlari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda amaldagi milliy me'yorlar moliyaviy hisobotlarda ekologik komponentlarni to'liq qamrab olmaydi, bu esa auditorlar uchun yashil risklarni aniqlashda metodik bo'shliqni yuzaga keltiradi. XAS 315 va 330 esa korxonalar faoliyatini chuqur tushunish va muhim xatolik xatarlarini baholash orqali ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik xarajatlarini audit jarayoniga integratsiyalash imkonini beradi.

Tadqiqotda, ekologik faoliyatni moliyaviy tahlilga integratsiyalash uchun indikatorlar majmuasi ishlab chiqildi. Bu indikatorlar korxonaning ekologik investitsiyalarga yo'naltirgan mablag'lari, uglerod izlarini kamaytirish bo'yicha xarajatlari va barqarorlik daromadlarini baholashga xizmat qiladi. Audit nuqtayi nazaridan esa, ushbu indikatorlar asosida yashil risklarni aniqlash va audit dalillarini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari auditi samaradorligini oshirish uchun ekologik ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotlarga integratsiyalash zarur. Quyida jadvalda pul oqimlari auditi jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan indikatorlar majmuasi keltirilgan bo'lib, ular korxonalarning ekologik faoliyatini moliyaviy natijalar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Taklif etilgan indikatorlar majmuasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari hisobotini ekologik ko'rsatkichlar bilan boyitish imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi, balki korxonalarning ekologik mas'uliyatini ham moliyaviy natijalar orqali baholashga yordam beradi. Shuningdek, indikatorlar auditchilar uchun yashil risklarni aniqlash va dalillarni shakllantirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada, pul oqimlari auditi ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari va barqarorlik xarajatlarini to'liq qamrab oladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida pul oqimlari auditi samaradorligini oshirish uchun indikatorlarni hisobvaraqlar kesimida ko'rsatish muhim metodik yondashuv hisoblanadi.

**“Yashil iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar pul oqimlari
auditi uchun taklif etilgan indikatorlar majmuasi”**

Indikator	Tavsif	Pul oqimlari auditi bilan bog‘liqligi	O‘lchov birligi
Ekologik investitsiyalar ulushi	Korxonalar investitsiyalarida ekologik loyihalarga yo‘naltirilgan mablag‘lar	Pul oqimlari chiqimlarida alohida satr sifatida aks ettiriladi	%
Uglerod kompensatsiyasi xarajatlari	CO ₂ chiqindilarini kamaytirish uchun sarflangan mablag‘	Pul oqimlari chiqimlari bo‘limida “barqarorlik xarajatlari” sifatida ko‘rsatiladi	mln so‘m
Davlat subvensiyalari	Ekologik faoliyat uchun olingan moliyaviy yordam	Pul oqimlari kiritimlarida “subvensiyalar” alohida satr sifatida aks ettiriladi	mln so‘m
Barqarorlik daromadlari	Ekologik samaradorlikdan olingan qo‘shimcha daromad (masalan, energiya tejamlilikdan)	Pul oqimlari kiritimlarida “ekologik daromadlar” sifatida ko‘rsatiladi	mln so‘m
Energiya samaradorligi ko‘rsatkichi	Yalpi mahsulot birligiga nisbatan energiya sarfi	Auditda ekologik risk indikatorlaridan biri sifatida qo‘llanadi	kWh/so‘m
Chiqindilarni kamaytirish xarajatlari	Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirishga yo‘naltirilgan mablag‘	Pul oqimlari chiqimlarida ekologik xarajatlarning sifatida aks ettiriladi	mln so‘m
Uglerod izini kamaytirish darajasi	Korxonalar faoliyatidan kelib chiqadigan CO ₂ emissiyalarining kamayishi	Auditda yashil risklarni baholash indikatorlaridan biri	tonna CO ₂

Ekologik investitsiyalar, uglerod kompensatsiyalari, chiqindilarni kamaytirish xarajatlari va davlat subvensiyalari kabi elementlar tegishli schyotlarda aks ettirilishi orqali auditorlar moliyaviy oqimlarning ekologik komponentlarini aniq kuzatishi mumkin.

Shuningdek, indikatorlarni hisobvaraqlar asosida belgilash auditchilar uchun yashil risklarni aniqlash va dalillarni shakllantirishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ekologik investitsiyalar 08xx guruhida, uglerod kompensatsiyasi xarajatlari 20xx–26xx guruhida, davlat subvensiyalari esa 48xx blokida yuritilishi orqali auditorlik tekshiruvlari izchil va shaffof bo‘ladi. Natijada, moliyaviy hisobotlarda ekologik xarajatlarning va daromadlarning alohida satr sifatida aks ettiriladi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari tarkibini tubdan o‘zgartirmoqda. Korxonalar pul oqimlari tarkibida ekologik xarajatlarning, uglerod kompensatsiyalari, barqarorlik investitsiyalari va davlat subvensiyalari paydo bo‘lmoqda. Pul oqimlari tahlili va auditning an‘anaviy metodikasi bu elementlarni to‘liq qamrab olmaydi, bu esa moliyaviy shaffoflikning pasayishi, investorlar uchun risklarning oshishiga sabab bo‘ladi.

Taklif etilgan metodologiya ekologik ko‘rsatkichlarni moliyaviy tahlil va audit jarayoniga integratsiyalab, yashil risklarni aniqlash, baholash va audit dalillarini shakllantirish imkonini beradi.

BHMSga ekologik komponentlarni kiritish, jumladan ekologik investitsiyalar, barqarorlik xarajatlari, uglerod kompensatsiyalari va subvensiyalarni hisobga olish, XAS standartlariga yashil risklar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, pul

oqimlari hisobotlarini “Ekologik investitsiyalar”, “Yashil subvensiyalar” va “Barqarorlik daromadlari” kabi bandlar bilan kengaytirish, auditda ekologik indikatorlarga asoslangan risk baholash tizimini joriy etish, korxonalarda ESG hisobotlari va moliyaviy hisobotlarni yagona yondashuv asosida integratsiyalash, yashil kreditlar va subsidiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish hamda sohaga mos auditorlar uchun ekologik buxgalteriya va yashil audit bo‘yicha tayyorlov dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *World Bank. Uzbekistan: Realizing an Inclusive Green Growth Transition. 2023. <https://projects.worldbank.org/en/results/2023/10/26/uzbekistan-realizing-an-inclusive-green-growth-transition>*
2. *UNDP Uzbekistan. Future of Green Transition in Uzbekistan. 2023. <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/future-green-transition-uzbekistan>*
3. *International Federation of Accountants (IFAC). ISA 700: Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements.*
4. *Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan on the Approval of the Green Growth Strategic Framework. December 2022.*
5. *UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme.*
6. *Schaltegger, S., & Burritt, R. (2018). Business Cases and Corporate Engagement with Sustainability: Differentiating Ethical Motivations. Journal of Business Ethics, 147(2), 241–259.*
7. *Gray, R., & Milne, M. (2002). Sustainability Reporting: Who’s Kidding Whom? Chartered Accountants Journal of New Zealand, 81(6), 66–70.*
8. *IFAC (2020). International Standard on Auditing (ISA) 315 and 330. International Federation of Accountants.*
9. *O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to‘plami.*
10. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–4477-son. (2022). Yashil o‘shish strategik asoslarini tasdiqlash to‘g‘risida.*

PREPARATION FOR GLOBAL IPOS AND ANALYSIS OF SUCCESSFUL PRACTICES: EVIDENCE FROM FOREIGN COMPANIES

Alikulova Nilufar

TSUE, “Corporate Finance and Securities Market” department, PhD

Aliboev Umid

TSUE, master’s student in “Corporate Finance and Securities Market”

In today's turbulent economic times, the transition of companies from limited liability to an open initial public offering and becoming public companies is a pressing agenda for many business entities. Because it is this process that makes an incomparable contribution to their position in international financial markets and expanding their business scope. It is the IPO process that opens the way for private companies to be publicly traded on stock exchanges and thereby obtain very large and diversified investments. However, this process not only creates opportunities, but also